



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



ADABIYOT FANINI O'QITISHDA INNOVATSION USULLARNING AHAMIYATI

M.Ashurova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Xitoyschunoslik oliv maktabi o'qituvchisi

maktubaasurova5@gmail.com

+998 97 157 44 60

Annotasiya. Ushbu ishda xitoy adabiyotini o'qitishda "rolli o'yin" metodidan foydalanishning samaradorligi ko'rib chiqiladi. Ushbu usul talabalarni o'quv jarayoniga faol jalb qilish, ularning tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, shuningdek, Xitoy adabiy asarlari va madaniy xususiyatlarini chuqur tushunishga yordam beradi. Interfaol ta'limning afzalliklari, jumladan, motivatsiyani oshirish, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish va matnni tanqidiy idrok etish tahlil qilinadi. Metodning samaradorligini tasdiqlovchi tadqiqot natijalari, shuningdek, uni ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: "rolli o'yin", zamonaviy pedagogik metodlar, psixologik rolli o'yinlar, interaktiv ta'lim.

Ta'lim jarayonida rolli o'yin tushunchasi va turlari

Rolli o'yin (rol o'yini) – bu o'yin usuli bo'lib, u ishtirokchilarga turli rollarni iじro etish imkonini beradi. U ta'lim jarayonida ko'pincha o'qitish, o'rganish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi. Rolli o'yinlar shunday usullar bo'lib, ular ta'limga interaktivlik, ijodiy yondashuv va muammo yechish kabi elementlarni qo'shadi.

Rolli o'yinlarning turlari

1. Ssenariyli rolli o'yinlar. Bu turda talabalarga aniq ssenariy, hodisa yoki vaziyat beriladi va ular uni ijro etar ekan, muayyan xarakterlar yoki yo'naliishlarga rioxalashlari kerak. Masalan, o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'tkaziladigan savol-javoblari yoki guruhlar orasida rollarni taqsimlab, jarayon rivoji bo'yicha ishslash.

2. Interaktiv rolli o'yinlar (improvizatsiya) Bu turda ssenariysiz yoki eng kichik ssenariy bilan ishslashga mo'ljallangan. Talabalar o'z fikrlari va tasavurlariga asosan rollarni bajaradi. Bu turda muhim narsa – har bir talaba o'zini to'liq yoki qisman mavjud bo'lgan voqeaga moslashtiradi.

3. Psixologik rolli o'yinlar. Bu turda talabalar yoki ishtirokchilar kimnidir hissiyotlari, qobiliyatlarini va munosabatlarini his qilish va o'rganishga uringan holda o'zlariga bir rol olishadi. Ushbu turda ta'limning o'ziga xosligini va talabalarni uyg'otish uchun psixologik tahlil va rollarni o'ynashga katta ahamiyat berilgan.

Rolli o'yinlarning ta'limdag'i ahamiyati

1. O'qitish va o'rganish jarayonini rang-barang qiladi





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATION G'ÖYALAR



Rolli o'yinlar talabalarga nazariyadan amaliy ishga o'tish imkonini beradi. Bu o'yinlar o'qituvchining o'rgatish usullarini jonli, qiziqarli va interaktiv qilib joriy qilishga yordam beradi.

2. Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi

Rolli o'yinlar talaba yoki ishtirokchilarga o'zini to'g'ri tasvirlash va yaxshi qaror qabul qilish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

3. Jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantiradi

Ushbu o'yinlarda talabalar birgalikda ishlashga majbur bo'ladilar, bu esa ularning jamoada faol ishlash, muloqot qilish va kollektiv qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

4. Muloqot ko'nikmalarini oshiradi

Rolli o'yinlar talabalarni bir-biri bilan erkin va samarali muloqotga olib keladi, bu esa ularning ijtimoiy ko'nikmalarini yaxshilaydi.

1.2. Rolli o'yinlarning psixologik va pedagogik jihatlari

Rolli o'yinlar ta'limda, ayniqsa, psixologik va pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ushbu o'yinlar talaba va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlik, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qilish uchun ko'p jihatdan foydalilanildi. Rolli o'yinlarning psixologik va pedagogik jihatlarini quyida ko'rib chiqamiz.

Psixologik jihatlar

1. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish Rolli o'yinlar talaba va ishtirokchilarga o'zlarini yangi, qiziqarli va noma'lum vaziyatlarda ko'rishga yordam beradi. Bu ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, ularga muammolarni yangicha va turlicha ko'z bilan ko'rish imkonini beradi.

2. O'zini anglash va shaxsiyatni rivojlantirish. Rolli o'yinlar ishtirokchilarga turli xarakteralarning roliga kirish imkonini beradi. Bu ularga boshqalarni tushunish, o'z ehtiyojlarini va reaksiyalarini aniqlash, shuningdek, ishonch va mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Empatiyani (his tuyg'ularini tushunish) rivojlantirish Rolli o'yinlar psixologik jihatdan empatiyani oshiradi, chunki ishtirokchilar boshqalarning sezgilarini, hissiyotlarini tushunishga, ularning qanday qabul qilishini o'rganishga majbur bo'ladilar. Masalan, kimningdir roliga kirib, uning nuqtai nazarini tushunish, psixologiyada empatiyani rivojlantirishga yordam beradi.

4. Xavf va muammolarni yechish qobiliyatlarini rivojlantirish. Rolli o'yinlar ishtirokchilarni muammolarni hal qilishga majbur qiladi. Ushbu jarayonda odamlar stressga, xavotirga, qiynalishga yoki yangi vaziyatlarga qarshi qanday reaksiya bildirishini kuzatish mumkin. Bu holatlar ishtirokchilarning o'zini his qilish, tashabbus ko'rsatish va eng yaxshi vaziyatlarni topishga urinishlariga yordam beradi.

5. Muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish Rolli o'yinlar ishtirokchilarning muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, chunki ular real vaziyatlar, gaplar,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



munosabatlar va qarorlar qabul qilish jarayonini amaliy ravishda tushunishadi. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy munosabatlardagi ishlashni yengillashtiradi.

Pedagogik jihatlar

1. Har xil o‘qish uslublarini qo‘llash Rolli o‘yinlar o‘qituvchilarga dunyoqarash, histuyg‘ular va bilimlarni turlicha ko‘rsatishga yordam beradi. Bu, o‘quvchilarga amaliy misollar va voqealarning muhokamalarini olib kirish orqali o‘qitishni samarali tashkil qilish imkonini beradi. Ushbu usul talabalarga o‘qishni turli shakllarda o‘zlashtirishga yordam beradi.

2. Interaktiv ta’limni joriy qilish Rolli o‘yinlar interaktiv ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi, chunki u talabalarga faol ishtirok etish, muhokama qilish, qaror qabul qilish va birgalikda ishlash imkonini beradi. Bu o‘qitishni qiziqarli va mavzuga oid qilib yaratishga yordam beradi.

3. Ma’naviy-axloqiy rivojlanish Rolli o‘yinlar o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, ijtimoiy ahamiyatga ega rollarda ishtirok etish, boshqalarga yordam berish yoki muammolarni hal qilish uchun mas’uliyat olish talabalari axloqiy qoidalarga amal qilishga yordam beradi.

4. Jamoaviy ishlashni qo‘llab-quvvatlash Rolli o‘yinlar talabalarni jamoada ishlashga yordam beradi. Talabalar birgalikda muammolarni hal qilish, qarorlar qabul qilish va natijalarga erishish uchun hamkorlik qilishga majbur bo‘ladilar. Bu o‘quvchilarga o‘zaro ishonch, hamjihatlik va muloqotni rivojlantirishga yordam beradi.

5. O‘quv jarayonini erkin va to‘g‘ri yo‘nalishda boshqarish Rolli o‘yinlar o‘qituvchiga o‘quv jarayonini samarali va erkin boshqarish imkonini beradi. O‘qituvchi talabalarining faoliyatini kuzatish, ularga yo‘nalish berish va o‘rganish jarayonini harakatlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

1.3. Xitoy adabiyoti fanini o‘qitish xususiyatlari va unda rolli o‘yinlardan foydalanish imkoniyatlari

Xitoy adabiyoti fanini o‘qitishda mavjud adabiy meros, an'analar va madaniy qadriyatlarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Bu fan o‘quvchilarga nafaqat Xitoyning adabiy tarixini, balki uning ma’naviy va madaniy qadriyatlarini ham tushunishga yordam beradi. Shuning uchun, Xitoy adabiyoti fanini o‘qitishda rolli o‘yinlardan foydalanish o‘quv jarayonini jonli, interaktiv va taassurotli qilishga yordam beradi.

Xitoy adabiyoti fanini o‘qitish xususiyatlari

1. Adabiy va madaniy kontekst. Xitoy adabiyoti dunyo adabiyotining eng qadimiy va boy bo‘lgan bo‘limlaridan biri hisoblanadi. Xitoyning ko‘p asrlik tarixi va madaniyati adabiy asarlarda chuqur aks etadi. Bu fanni o‘qitishda talaba faqat adabiy asarlar bilan tanishib qolmay, balki Xitoyning an‘anaviy ko‘zqarashlari, milliy qadriyatlari va ma’naviy jahonqarashlari bilan ham tanishadi.

2. Tarixiy va filosofik kontekst Xitoy adabiyoti ko‘pincha milliy va tarixiy voqealar, shuningdek, Konfutsiy, Lao Szi va boshqa yirik falsafiy ishchilarning g‘oyalariga





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



asoslangan. Shunday ekan, o‘qituvchi fanni o‘qitishda faqat adabiy mazmunga emas, balki tarixiy va falsafiy kontekstga ham e’tibor qaratishi kerak.

3. Madaniy va ijtimoiy tushunchalar Xitoy adabiyotining ko‘p asarlarida madaniy va ijtimoiy qadriyatlar, insonning hayotdagi o‘rni, tuyg‘ular va munosibatlar bilan bog‘liq masalalar ko‘tariladi. Ushbu masalalar talabalarga Xitoyning ijtimoiy tuzilishi va tarixi haqida aniq tasavvurlar berishga yordam beradi.

4. Jadal o‘rganish va to‘liq yondoshuv Xitoy adabiyoti fanini o‘qitishda, fanning mazmuni va aniq ko‘rsatkichlarini o‘zlashtirish, talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi aloqa va muloqotga ahamiyat berish kerak. Bunda, talaba faqat matnlarni yozish va o‘qish bilan cheklanmasdan, adabiy manbalarni tahlil qilish va ularni kundalik hayotga tatbiq etishni ham o‘rganishi lozim.

Rolli o‘yinlardan foydalanish imkoniyatlari

Rolli o‘yinlar Xitoy adabiyoti fanini o‘qitishda o‘quvchilarning o‘zlashtirishi va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. Rolli o‘yinlardan foydalanishning ba’zi asosiy imkoniyatlari quyidagi holatlardan iborat:

1. Adabiy personajlar va voqealarga kirish Xitoy adabiyotidagi muhim personajlar va voqealarni talaba rolli o‘yinlar orqali o‘rganishi mumkin. Masalan, Konfutsiyning o‘rni, Lao Szi yoki Sun Szuning g‘oyalariga kirish, ularning hayoti va falsafasini aniqlash uchun rolli o‘yinlarni qo‘llash mumkin. Bunda talabalar turli personajlar roliga kirishib, ularning o‘ylarini va ish-harakatlarini o‘rganishlari kerak.

2. Madaniy va ijtimoiy tizimlarning o‘rganilishi Rolli o‘yinlar Xitoy madaniyati va ijtimoiy tizimini o‘rganish uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin. Talabalarga Xitoyning an‘anaviy oilaviy tizimi, ijtimoiy muhokamalar va qadriyatlarning ahamiyati haqida rol o‘ynash orqali tushunchalarni yaxshilash imkonini beradi. Masalan, ular oilaviy munosabatlar, hokimiyat va jamiyat bilan bog‘liq har xil ijtimoiy vaziyatlarni o‘ynashlari mumkin.

3. Falsafiy va axloqiy mavzularni muhokama qilish Rolli o‘yinlar falsafiy va axloqiy mavzularni muhokama qilishda ham foydalidir. Xitoy adabiyotidagi konsepsiylar, masalan, "Tyan" (osmon) va "Dao" (yo‘l) kabi tushunchalarni ro‘yobga chiqarish orqali, talabalar hayot va uning ma’nosini haqida bahs qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ushbu o‘yinlarda talaba har xil xulq atvorlarini to‘liq tushunib, ularni rollar orqali qayta ko‘rib chiqishlari mumkin.

4. Tarixiy voqealarni qayta tiklash Rolli o‘yinlar tarixiy voqealarni qayta tiklashga yordam beradi. Xitoyning tarixidagi muhim davrlar va voqealar (masalan, Tan, Sun yoki Min sulolalarining hukmronligi)ni o‘z ichiga olgan ro‘yxatlarni o‘ynash, talabalarga tarixni yaxshilab tushunishga yordam beradi.

5. Interaktiv talqin va muhokama Rolli o‘yinlar talabalarni adabiy asarlar bilan yanada chuqurroq tanishtirishga, ularning mazmuni va obrazlarini interaktiv yondoshuv orqali to‘liq anglashga yordam beradi. Talabalar maxsus situatsidagi yoki adabiy asarlardagi personajlar o‘rnida o‘z fikrlarini bildirishlari va muhokama qilishlari mumkin.





Xulosa

Rolli o‘yinlar ta’lim jarayonida ishtirokchilarga turli qobiliyatlarni rivojlantirish, ijodiy fikrlash va guruh bilan ishlash qobiliyatlarini oshirish uchun juda samarali usul hisoblanadi. Ushbu o‘yinlarning turli shakllari o‘qituvchilarga o‘qitish jarayonini qiziqarli va dinamik qilib, talabalarning bilimlarini mustaxkamlashda katta yordam beradi.

Rolli o‘yinlar pedagogika va psixologiyada muhim va samarali vositadir. Ular nafaqat o‘qitish jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi, balki talabalarning psixologik rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Ijodiy fikrlash, empatiya, jamoada ishlash va tanqidiy fikrlash kabi ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun rolli o‘yinlar asosiy pedagogik va psixologik vosita sifatida muhim ahamiyatga ega.

Xitoy adabiyoti fanini o‘qitishda rolli o‘yinlar o‘quv jarayonini jonli, interaktiv va qisqacha qilib tashkil etishga yordam beradi. Ushbu metod talabalarga Xitoy adabiyotini na faqat nazariy, balki amaliy va empatik darajada tushunishga yordam beradi. Rolli o‘yinlardan foydalanish orqali, talaba har xil adabiy personajlar, tarixi va madaniyat bilan bog‘liq fikrlar va bag‘rikenglikni aniqlash, hamda ijodiy fikrlash va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yermakov I. G. Jiznennaya kompetentnost lichnosti: ot teorii k praktike. Nauchno-metodicheskoe posobie. – Z.: Sentrion, 2005. – S 426-428.
2. Jitnik B. O. Metodicheskoe posobie: formы i методы obucheniya. – X.:Izdat. gruppa «Osnova», 2005. – S 64-65.
3. Nazarenko M. I. «Istoriya odnogo goroda» M.E. Saltikova-Щедрина kak igra v istoriyu// Russkiy yazыk i literatura v uchebnix zavedeniyax. – 2006.- № 1. – S 34-41.

